



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Xorazm viloyatida
kichik tadbirkorlik
2022- yil yanvar- mart**

Dastlabki ma'lumotlar


Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, %da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar- martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM** dagi ulushi **65,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,6** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-martida **1 307** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **102,8 %**ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda - **408** ta, sanoatda - **319** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **306** ta, yashash va ovqatlanishda - **54** ta, tashish va saqlashda - **52** tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

22 464




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

1 307

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, %da

Savdo

34,0%



Sanoat

19,3%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

12,9%



Qurilish

9,0%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,0%



Tashish va saqlash

3,9%



Axborot va aloqa

1,5%




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,1%




Boshqa faoliyat turlari

10,3%



Yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y.

■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-mart

■ 2022- y. yanvar-mart


2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da

2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – 12,7 %, Qo'shko'pir tumani – 10,5 %, Bog'ot tumani – 10,2 %, Hazorasp tumani – 9,8 %, Xonqa tumani – 9,2 %, Urganch tumani – 9,0 % va Xiva sh. – 7,7 % hissalariga to'g'ri keldi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar - mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar- martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
408 ta

Sanoatda
319 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
306 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda
54 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,6 birlikni tashkil etdi.



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*

2020- y.

11,5

2021- y.


11,8

2022- y.

13,6

2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik subyektlari sonining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch sh.- 31,3 birlik, Xiva sh. - 20,6 birlik, Urganch tumanida 12,5 birlik, Yangibozor tumanida 12,4 birlik, Xiva tumanida 11,3 va Gurlan tumanida 9,9 birlikni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra*


Eng yuqori ko'rsatkich
Urganch shahri - 31,3 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Qo'shko'pir tumani - 9,8 birlik.

Past ko'rsatkich
Hazorasp tumani - 6,3 birlik.

2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik subyektlari sonining tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Urganch sh. 31,3 birlik, Xiva sh. 20,6 birlik, Urganch tumanida 12,5 birlik, Yangibozor tumanida 12,4 birlik, Xiva tumanida 11,3 birlik, Gurlan tumanida 9,9 birlik, Qo'shko'pir 9,8 birlik, Yangiariq 9,8 birlik, Tuproqqal'a tumanida 9,5 birlik, Xonqa tumanida esa 9,3 birlikni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 27,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 50,7 %ini tashkil etdi.



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xiva tumanida – 100,0%, Xiva sh. – 95,8%, Qo'shko'pir tumanida – 92,7%, Gurlan tumanida – 80,3%, Hazorasp tumanida – 74,1% va Yangiariq tumanida – 55,1% ni, eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – 14,6% ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **45,0** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **78,5** %ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Xiva tumanida – 100,0 %, Bog'ot tumanida – 98,8 %, Yangiariq tumanida – 98,1 %, Hazorasp tumanida – 94,0 %, Gurlan tumanida – 86,4 %, Urganch tumanida – 79,9 %, Urganch sh. – 71,8 %. Eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida – 4,7 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **618,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (98,7 mlrd so'm), Yangiariq (96,1 mlrd so'm), Xiva (68,1 mlrd so'm), Urganch (57,4 mlrd so'm) va Yangibozor (46,2 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shko'pir tumanida (20,8 mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **14,1** %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva (100,0%), Xiva sh. (100,0), Yangiariq (100,0%), Xiva sh. (100,0%), Yangibozor (40,8%), Bog'ot (26,5%), Urganch (25,1%), Shovot (24,5%), Hazorasp (18,1%), Xonqa (17,6%) va Gurlan (17,3%) tumanlari tashkil etdi. Tuproqqal'a tumanida (2,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2 009,0** mlrd soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **76,3%**ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **101,5%**ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (584,9 mlrd soʻm), Gurlan (233,9 mlrd soʻm), Urganch (205,3 mlrd.soʻm), Hazorasp (198,1 mlrd soʻm), Shovot (142,2 mlrd soʻm) va Xonqa (136,5 mlrd soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **733,0** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **95,0%**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **102,2%**ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (153,0 mlrd so'm), Xiva (70,8 mlrd so'm), Urganch (62,2 mlrd so'm), Bog'ot (53,6 mlrd so'm), Xonqa (50,9 mlrd so'm), Qo'shko'pir (50,3 mlrd so'm) va Xiva sh. (48,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 388,4** mlrd soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,3** %ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **111,1** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Urganch shahri (369,8 mlrd soʻm), Urganch (118,8 mlrd soʻm), Hazorasp (101,0 mlrd soʻm), Bogʻot (98,2 mlrd soʻm), Xonqa (95,7 mlrd soʻm), Qoʻshkoʻpir (92,4 mlrd soʻm) va Gurlan (87,3 mlrd soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




■ hajm, mlrd soʻm


● oʻsish surʻati, %

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,7 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 74,5 %ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,7 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,3 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 %ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 169** ta kichik korxonalar va mikrofirma ishtirok etdi. Ularning 328 tasi (28,1%) iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 796 ta (68,1%) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 45 ta (3,8%) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,2% (84 ta), sanoatda – 17,3% (202 ta), qurilishda – 8,4% (98 ta), savdoda – 39,1% (457 ta), xizmatlar sohasida – 28,0% (328 ta) ni tashkil etdi.

2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (292 ta), Urganch (132 ta), Xonqa (98 ta), Gurlan (80 ta), Qo'shko'pir (79 ta) tumanlari va Xiva sh. (77 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 34,5%ni, sanoatda 23,6%ni, savdo sohasida 26,3%ni va qurilishda 28,6%ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 64,9%ni, qurilishda 67,3%ni, sanoatda 59,9%ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 53,6%ni, savdo sohasida 37,0%ni, xizmatlar sohasida 36,6%ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda 63,4%ni, qurilishda 62,3%ni, sanoatda 63,4%ni tashkil etdi.

